



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 10 | pp. 423-426 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KORXONALAR FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISHDA BUXGALTERIYA HISOBI MAHLUMOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI



B.N. Muydinov

i.f.n., dots., University of Economics and Pedogogy

O'quv ishlari bo'yicha prorektori

Annotatsiya. Maqola korxonalar faoliyatini samarali boshqarishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlari keng yoritib berish hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Iqtisodiy islohotlarining chuqurlashib borishi, O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi o'z navbatida, mavjud qonunchilik asosini doimiy ravishda takomillashtirish, uni xalqaro me'yorlar va standartlarga moslashtirib borishni taqozo qilishi. Korxonalarni boshqarish, uning oldiga qo'yilgan reja ko'rsatkichlariga doir vazifalarni bajarish maqsadida xo'jalik faoliyati ustidan kundalik kuzatib borish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy islohotlar, rivojlanib borish, bozor munosabatlarini erkinlashtirish, mulkchilik shakllarini ko'paytirish, sotish, taqsimlash, iste'mol qilish, takror ishlab chiqarish, miqdor va sifat o'zgarishlar, kuzatish, o'lchash, ro'yxatga olish, hisob yuritish boshqarishning ajralmas qismi, xo'jalik fakti, xo'jalik muoamalalar, haqiqiy tannarx, moliyaviy natija, xo'jalik hisobi, hisobning aniqligi, hisobning to'g'riligi, hisob ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish, natural hisob, miqdoriy hisob, hisob sodda, hisob tushunarli.

Аннотация. Статья посвящена широкому освещению возможностей использования учетной информации в эффективном управлении предприятиями и изучению ее особенностей. В статье углубление экономических реформ, интеграция Республики Узбекистан в мировую экономическую систему, в свою очередь, требует постоянного совершенствования существующей правовой базы, ее адаптации к международным нормам и стандартам. Уделено внимание вопросам ежедневного мониторинга хозяйственной деятельности в целях управления предприятиями и выполнения задач, связанных с показателями поставленного перед ним плана.

Ключевые слова: Экономические реформы, развитие, либерализация рыночных отношений, увеличение форм собственности, продажа, распределение, потребление, воспроизводство, количественные и качественные изменения, мониторинг, измерение, учет, неотъемлемая часть управления бухгалтерским учетом, экономический факт, хозяйственные операции, фактическая стоимость, финансовый результат, экономический учет, точность учета, правильность учета,

своевременное выполнение учетных работ, натуральный учет, количественный учет, учет простой, расчет понятен.

Annotation. The article is devoted to the broad coverage of the possibilities of using accounting information in the effective management of enterprises and the study of its features. In the article, the deepening of economic reforms, the integration of the Republic of Uzbekistan into the world economic system, in turn, requires constant improvement of the existing legal framework, its adaptation to international norms and standards. Attention is paid to issues of daily monitoring of economic activity for the purpose of managing enterprises and fulfilling tasks related to the indicators of the plan set before it.

Keywords: Economic reforms, development, liberalization of market relations, increase in forms of ownership, sale, distribution, consumption, reproduction, quantitative and qualitative changes, monitoring, measurement, accounting, integral part of accounting management, economic fact, business transactions, actual cost, financial result, economic accounting, accuracy of accounting, correctness of accounting, timely performance of accounting work, natural accounting, quantitative accounting, simple accounting, clear calculation.

Iqtisodiy islohotlarining jadal suratlar bilan rivojlanib borishi, O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi o'z navbatida, mavjud qonunchilik asosini uzviy ravishda zamonaviylashtirib, uni xalqaro me'yorlar va standratlar talablariga moslashtirib borish kerak bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subektlarni boshqarish, uning oldiga qo'yilgan biznes reja ko'rsatkichlariga doir vazifalarni bajarish maqsadida xo'jalik faoliyati ustidan doimiy nazorat olib borishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti bozor munosabatlarini erkinlashtirish va erkin raqobat muhitini yaxshilash yo'li bilan rivojlanmoqda. Bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish, mulkchilik shakllarini ko'paytirish, davlat mulkini xususiyashtirishga alohida e'tibor qaratish va sog'lom raqoba muhitini doimiy ravishda rivojlantirib borish orqali amalga oshiriladi. Keng ko'lamlı yirik ishlab chiqarish, yuqori sifatli eksportbop ishlab chiqarishlar va yahshi boshqaruv tizimini doimiylikini ta'minlash erkin raqobat muhitisiz vujudga kelmaydi.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, innovatsiya jarayonlarini tezlashtirish va bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida u ishlab chiqarish bo'ladimi, u hizmat ko'rsatish bo'ladimi, u savdo bo'ladimi asosiy e'tiborni moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, ortiqcha sarflarni va yo'qotishlarni bartaraf qilishga qaratishi lozim bo'ladi. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda buxgalteriya hisobini tog'ri va aniq yuritilishining roli beqiyosdir.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti asosan moddiy ne'matlar yaratish bilan bevosita bog'liq. Bu jarayonda kishilar iste'mol buyumlarini: oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal hamda mehnat vositalarini: mashinalar, inshootlar, asbob-uskunalar va hokazolar ishlab chiqaradilar yoki etishtiradilar. Ishlab chiqarilgan

mahsulotlar esa sotiladi, taqsimlanadi va iste'mol qilinadi. Bunday ketma ketlikda doimiy davom etadigan ishlab chiqarish, sotish (ayirboshlash) va iste'mol jarayonlari ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyatini tashkil etadi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun esa ularni uzuluksiz ravishda nazorat qilib, ushbu jarayonlarda sodir bo'layotgan miqdor va sifat o'zgarishlarini hisobini yuritish imkoniyatiga ega bo'lish kerak.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlari mazmunan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda sodir bo'ladigan jarayonlar yig'indisidan iboratdir. Shuning uchun iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlaridagi ishlab chiqarish, sotish, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarini tavsiflovchi miqdor ko'rsatkichlari-ning yig'indisi takror ishlab chiqarish jarayonlari va ijtimoiy turmushdagi boshqa jarayonlarni butunligicha tavsiflay oladi.

Xo'jatic yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilayotgan faoliyatlarining natijalarini nazorat qilish, kuzatish, o'lchash va ro'yxatga olish orqali foydalilik darajasiga baho berib boriladi. Kuzatish orqali korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatini tashkil etuvchi ma'lumotlar manbaiga yani dalillar to'planadi. Bu dalillarni esa ma'lum o'lchov birliklarida ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan, ichki va tashqi foydalanuvchilarga tushunarli holatga ifodalangan hamda tegishli ravishda guruhlariga ajratib ro'yxatga olib borish talab qilinadi. Shu tariqa xo'jalik faoliyatiga baho berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobni yuritish xo'jalik faoliyatini boshqarish, keng ma'noda esa butun ijtimoiy ishlab chiqarishni, ya'ni jamiyatni boshqarish uchun zarur degan xulosani aytish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, buxgalteriya hisobi va hisobotini to'g'ri va aniq yuritish, hisob siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yishga erishish deb ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va ularni boshqarishni ta'minlash maqsadida, bu jarayonlarni miqdor jihatdan aks ettirib, sifat jihatdan tavsiflashga aytiladi. Demak, yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki buxgalteriya hisobni to'g'ri va aniq yuritilishi oqilona boshqarishning ajralmas qismi ekanligi namoyon bo'ladi.

Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida hisob butun jamoaga ishlab chiqarish va iste'mol uchun qanday mehnat qurollari va mehnat buyumlari zarurligini bilish maqsadida kerak bo'lgan bo'lsa, jamiyat sinflarga bo'lingandan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarda esa hukmron sinfning manfaatini himoya qilib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, sinflar mavjud jamiyatda hisob yuritish o'zgarib, takomillashib va uning roli oshib borgan. Bozor munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha hukumat qabul qilgan qarorlarni hayotga tatbiq qilishda, korxonalarini xususiyashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitida hisob va statistikaning roli yana ham oshib bormoqda. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun hisob ma'lumotlariga ishlov berishni dasturlashtirish, hisobning ilg'or shakl va uslublarini qo'llash, hisob ishlariga sarflanadigan mablag'lar va mehnat sarflarini kamaytirishga erishish talab qilinmoqda. Bundan tashqari buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini aniqlik darajasini oshiriv, tahlil ma'lumotlarini mayda detallarga ajratish va bir so'z bilan aytganda boshqaruv qarorlarini to'g'ri

va foydali bolishini taminlashda buxgalteriya hisobini dasturlashtirish muxum axamiyat kasb etadi va buxgalteriya hisobini osonlashtirish imkoniyatini beradi.

Har bir xo'jalik jaroyonidagi axborot va xo'jalik muoamalalari buxgalteriya hisobida korxonada faoliyatining ham miqdor, ham sifat jihatlarini ifodalaydigan ko'rsatkichlarga aylanadi. Bular ayrim mahsulot turlarining haqiqiy tannarxi, korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari va boshqalardir.

Buxgalteriya hisobi xo'jalik yurituvchi sub'ektni boshqarishda foydalaniladigan axborot tizimidan iborat bo'lib, unda korxonada faoliyatida sodir bo'ladigan barcha jarayonlar va hisob ob'ektlarining holati to'g'risidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlari haqidagi axborotlar ma'lum qoidalar va standartlar bo'yicha ularni boshqarish uchun ilmiy asoslangan qoidalarga muvofiq qayd qilinadi, o'lchanadi, ishlov beriladi, to'planadi va guruhlanadi. Xo'jalik hisobi keng qamrovli va to'laqonli bo'lishi hamda korxonada iqtisodiyotini boshqarish vazifalari to'liq va o'z vaqtida amalga oshirishga yo'naltirilgan, ya'ni boshqaruv tizimi uchun foydalib o'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Urazov K.B. Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik.-T.: "Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 558b.
2. B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov Buxgalteriya hisobi. Darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi – T.: 2021. – 720 b.
3. A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi.
3. www.catback.ru – научные статьи и учебные материалы по экономике.
4. www.iqtisodiyot.uz
5. www.review.uz
6. www.bdm.uz/uz/birjaexpert
7. www.intereconom.com
8. htr://izvestia.usue.ru
9. www.fin-izdat.ru
10. www.uiiec.ru
11. www.TFL.uz
12. www.ziyonet.uz
13. www.norma.uz

Copyright © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

